ISSN 2181-3187

# PSIXOKORREKSION ISHNI MAKTABGACHA TA'LIM MUSASSALARIDA TASHKIL ETISH

*Ilmiy rahbar:* ***Akbaraliyeva Asilaxon Tojiddinovna***
*Toshkent amaliy fanlar Unversiteti*
*"Psixologiya" kafedrasi o'qituvchisi*
***Saidaxmedova Dilnoza***
*Pedagogika fakulteti Psixalogiya yo'nalishi*
*2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya;** Ushbu maqolada jamiyatda ta'limning birinchi bosqichi bo'lgan maktabgacha ta'limni rivojlantirish va bolalarning psixologik jarayonlari shuningdek, ayni shu paytni o'zida, mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, tashkil etish maktabgacha ta'limning turli shakllarini shakllantirish, ularni yuqori malakali, zamonaviy fikrlaydigan pedagog va mutaxassislar bilan ta'minlash, maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, ta'lim jarayoni ilg'or xorijiy ta'limni joriy etishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amaliyotlari haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar**: psixologik ta'lim, bolalar psixologiyasi, pedagogik xodimlar, maktabgacha ta'lim ta'lim tizimi.

Korryeksion-pedagogikaning paydo bo`lishi, tashkil topishi va rivojlanishi. Korryeksion pedagogikaning predmeti, vazifalari va mohiyati. Korryeksion pedagogikaning asosiy vazifalari. Korryeksion pedagogikaning katyegoriyalari.

―Korryeksion pedagogika‖ o`quv fanini o`zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- korreksion pedagogikaning shakllanishi va rivojlanishi tarixi; korreksion pedagogikaning katyegoriyalari; aqli zaiflikning psixologik-pedagogik xususiyatlari, uning paydo bo`lishi sabablari; nutqiy buzilishlar sabablari va ularning turlari; eshitish qobiliyatining buzilishi sabablari; ko`rish qobiliyati buzilishi turlari, ularning sabab va oqibatlarini bilishi kyerak;
- rivojlanishida nuqsoni bor bo`lgan bolalarni tashhis qilish tamoyillariga rioya qilish; korreksion-pedagogik faoliyat metodikasini egallash; psixik rivojlanishdan ortda qoluvchi bolalarning psixologik-pedagogik tavsifnomalarini tuza olish; aqli zaif bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlarni bajara olish ko`nikmalarini egallay olishi kyerak;
- nutqida nuqson bo`lgan o`quvchilarni korreksion o`qitish va rivojlantirish; eshitish qobiliyati buzilgan o`quvchilarni korreksion o`qitish va rivojlantirish; ko`rish qobiliyati buzilgan o`quvchilarni korreksion o`qitish va rivojlantirish malakalariga ega bo`lishi kyerak.

**Fanning o`quv ryejadagi boshqa fanlar bilan o`zaro bog`liqligi va uslubiy jihatdan uzviy kyetma-ketligi**

Korryeksion pedagogika fani umumkasbiy fan hisoblanib, 7-syemyestrda o`qitiladi. Dasturni amalga oshirish o`quv ryejasida ryejalashtirilgan gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy (politologiya, madaniy antropologiya), matyematik va tabiiy (yosh fiziologiyasi va gigiyena), umumkasbiy (pedagogika nazariyasi, oila pedagogikasi, ijtimoiy pedagogika, korreksion psixologiya) fanlari bilan o`zaro aloqada olib boriladi.

**Fanning ishlab chiqarishdagi o`rni**

Rivojlanishida nuqsoni bo`lgan bolalarni ijtimoiylashtirish, ularni jamiyatga moslashtirish hamma vaqt dolzarb masala bo`lib kyelgan. Hozirgi vaqtda ham shaxsi va faoliyatida nuqsoni bor bo`lgan bolalarni o`qitish va rivojlantirishga alohida e`tibor qaratilmoqda. Bo`lajak pedagoglarni anomal bolalarni o`qitish va rivojlantirishga doir ko`nikma va malakalarga ega bo`lishida mazkur fan alohida ahamiyatga ega.

**Fanni o`qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar**

Korryeksion pedagogika fanini o`rganish davomida mashg`ulotlar paytida kompyutyer, axborot va ta`limning boshqa zamonaviy texnologiyalari qo`llaniladi. Bundan tashqari darsliklar, o`quv qo`llanmalari, ma`lumotnomalar, pedagogik entsiklopyediyalar va lug`atlar, ma`ruza matnlari, tarqatma materiallaridan foydalaniladi.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar bilan ishlash jarayonida katta o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bog'chalarda bolalarning vaqtini mazmunli o'tkazishini ta'minlashdan tashqari ularning psixologik holati, katta bo'lish jarayonlarida tashqi ta'sirlariga reaksiyasini o'rganib ular bilan ishlaydigan malakali psixolog mutaxassislar ishlamoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi “2017-2021 yillarda ISSN: 2181-3337 SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL 2022 № 3 869 maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2707- sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentyabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5198- sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2019-yil-10 maydagi PQ-4312/3106-sonli qarori maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha kompleks chora- tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu xujjatlarda maktabgacha ta’lim tashkilotlarini tubdan isloh qilish, ularni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, malakali pedagogolar bilan ta’minlash, innovatsiyalarni joriy etish vazifalari belgilab berilgan. Buning uchun maktabgacha ta’lim tashkilotlarida soglom psixologik muhitni ta’minlash, psixologik xizmat sohasini yo’lga qo’yish takomillashtirish muhim hisoblanadi.

ISSN 2181-3187

Psixologik ta’limda bolalar psixologiyasi bo‘yicha umumiy ma’lumotlar bilan chegaralanmaydi, balki maktabgacha ta’lim tashkilotining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish natijalariga tayanadi, pedagogik jamoaning malakasi va xususiyatlarini, bolalar va ota-onalarning o‘ziga xosligini hisobga oladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida psixologik xizmatni yo‘lga qo‘yish va bu sohani yanada rivojlantirish uchun ko‘pgina imkoniyatlar yaratildi. Ta’lim tizimidagi psixologik xizmatni rivojlantirishdan ko‘zlangan asosiy maqsad bolaning aqliy va ruhiy salomatligini ta’minlashdir. Bolalar bog‘chasidagi psixolog – bu aqliy rivojlanishning umumiy qonunlarini va ushbu rivojlanishning yosh xususiyatlarini hamda uning individual variantlarini tushunadigan, bolani yaxshi biladigan va chuqur tushunadigan shaxs. Maktabgacha psixologik yoshdagi davrda individuallashtirilgan shaxsiy neoplazmalarning avvalgi psixologik yoshi oxirida paydo bo‘lgan shaxsiy xususiyatlarini (kuch, tezlik, hajm, sur’at, ritm) takomillashtirish, rivojlanish, mazmun jihatidan va rasmiy-dinamik xususiyatlar davri hisoblanadi. Shaxsiylashtirish jarayoni qonuniy ravishda bolaning shaxsiy rivojlanishini amplifikatsiya qilish jarayonining variantlaridan biridir. Va bu, ko‘p jihatdan, bolalik davrida bola shaxsiyatiningshakllanishi, uning kelajakdagi hayotiga bog‘liq bo‘ladi. Bolalikda biz bilan sodir bo‘lgan barcha voqealar bizning keyingi rivojlanish davrimizda chuqur iz qoldiradi. Bolaning qiyinchilik va yordamga muhtoj chog‘ida ota-ona sezgirligi va farzandiga nisbatan mehr- muhabbatining etarli bo‘lishi katta ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotida psixologik xizmat ko‘rsatishda asosiy e’tiborni – bolaning muammolari qor kabi o‘sib borgunga qadar kutmasdan, uni bartaraf etish, bolalar psixologiga o‘z vaqtida murojaat qilishdir.

**Korryeksion pedagogika fan sifatida**.

Rivojlanishidagi nuqsonlarni klassifikatsiyalash, ularning sabablari va omillari. Bola rivojlanishidagi nuqsonlarni diagnostika qilishda korreksion ishlar tamoyillari va metodlari. Aqliy va psixik rivojlanishida nuqsonlari bo`lgan o`quvchilarni korreksion o`qitish. Nutqida nuqson bo`lgan o`quvchilarni korreksion o`qitish. Eshitish qobiliyati buzilgan o`quvchilarni korreksion o`qitish. Ko`rish qobiliyati buzilgan o`quvchilarni korreksion o`qitish. Maxsus muassasalarda korreksion pedagogik ishlar ta`lim jarayonini asosi sifatida. Tarbiyasi og`ir bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlar.

**Nutqida nuqson bo`lgan o`quvchilarni korreksion o`qitish**

Nutqiy buzilishlar sabablari va ularning turlari. O`quvchilarning nutqi buzilishini psixologik-pedagogik tuzatish. Nutqiy buzilishi bo`lgan bolalarning psixologik-pedagogik xususiyatlari.

**Eshitish qobiliyati buzilgan o`quvchilarni korreksion o`qitish**

Eshitish qobiliyatining buzilishi sabablari, ularni turlarga ajratish. Eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni ommaviy, umumiy o`rta ta`lim maktablarida korreksion o`qitish.

**Ko`rish qobiliyati buzilgan o`quvchilarni korreksion o`qitish.**

Ko`rish qobiliyati buzilishi turlari, ularning sabab va oqibatlari. Ko`rish qobiliyati buzilgan bolalarni ommaviy, umumiy o`rta ta`lim maktablarida korreksion o`qitish va tarbiyalash.

**Maxsus muassasalarda korreksion pedagogik ishlar ta`lim jarayonini asosi sifatida**

O`quvchi yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlash. Jamiyatda o`z o`rnini topishga, myehnat qilish ko`nikma va malakalarni xosil qilish orqali ularga korreksion pedagogik ta`sir etish. Maktabni bitirgandan so`ng ular to`g`risida ma`lumotlar yig`ish.

**Tarbiyasi og`ir bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlar.**

Tarbiyasi og`ir o`smirlar bilan olib boriladigan pyedkorreksion ishlar tahlili. O`spirinlarda va o`smirlarda xulq og`ishganlikni yuzaga kyeltiruvchi ijtimoiy-pedagogik omillarni bartaraf etish usullari. SHaxslararo munosabatlar diagnostikasi va pedagogik korryeksiyasi.

Har qanday muammoni qisqa vaqt ichida bolaga azob-uqubat va og‘riq keltirmasdan ilgari hal qilish, yuzaga kelgan muammolarni ota-onalarga yetkazish va hamkorlikda ish olib borishdir. Ko‘pgina bolalar muammolari faqat vaqtinchalik va psixologning qisqa muddatli ishini talab qiladi. Bu esa maktabgacha ta’lim tashkiloti psixologidan qisqa muddatli ish dasturini tuzib chiqishni talab qiladi va ayni chog‘da individual tarzdagi maxsus dastur bo‘lishi kerak. Bolalar bir marotaba psixolog xizmatidan baxra olgandan so‘ng va uning natijasi ijobiy tomonga o‘zgarganini his qilsalar, nafaqat maktabgacha ta’lim tashkiloti psixologiga nisbatan ishonch, mehr, sevgi, hayrixohlik va albatta yuksak hurmat bildiradilar, balki, maktabgacha tashkilotga va u erdagi tarbiyachilarga nisbatan ham xuddi shunday munosabatda bo‘ladilar. Shu ISSN: 2181-3337 SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL 2022 № 3 870 sababdan psixolog individual va guruhli ishlash jarayonida hech bir holatni va bolalar xususiyatini ko‘zdan qochirmasligi kerak.

Bunda maktabgacha ta’lim tashkiloti psixologi quyidagi yo‘nalishlar asosida ish olib borsa samarali natija oladi. Psixologik xizmatning asosiy yo‘nalishlari:

1. Psixologik ma’rifat.
2. Psixologik oldini olish.
3. Psixologik diagnostika.
4. Psixologik tuzatish.
5. Psixologik maslahat

Shunday qilib psixologik yordam tizimi bolalar, ota-onalar va tarbiyachilar uchun rivojlanish, ta'lim-tarbiya, moslashuv, har bir o'tish yosh davri masalalari bo'yicha o'z vaqtida malakali maslahat, uslubiy, psixodiagnostik va psixokorreksion yordam ko'rsatishda yordam berishi aniq.

**XULOSA:** Maktabgacha ta'lim tashkilotida o'quv-tarbiya jarayonini individuallashtirish psixologning har bir bolaning ruhiy salomatligi va rivojlanishining to'laqonli bo'lishini ta'minlaydigan faoliyatning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Bola ruhining individual, rasmiydinamik xususiyatlarini hisobga olish alohida o'rin tutadi, bolalarning aqliy holati, jarayonlari, xatti- harakatlari va faoliyatining dinamikasini aniqlaydigan turli xil temperamentdagi bolalar bilan muayyan strategiya va taktikalarni ishlab chiqish hisoblanadi. Inson shaxsining psixik rivojlanishi va uning shakllanishi murakkab tadqiqot jarayonidir. Zero ,uning o'ziga xos xususiyatlari va qonuniyatlarini asosli ilmiy bilish, o'quvchi shaxsiga psixologik jihatdan ta'sir ko'rsatishning zarur shartidir Psixokorreksion faoliyatni olib borishdagi asosiy vazifa amaliy psixik taraqqiyot me'yorlarini o'rganishdan iborat Psixologik xizmatning psixokorreksiya yo'nalishi psixologdan inson shaxsi va individualligini tarkib toptirish jarayoniga faol ta'sir o'tkazishni taqozo qiladi. Xalq ta'limi tizimidagi psixologning vazifasi psixologik xizmatni muayyan qoida, mezonga asoslanib tashkil qilishdan iborat bo'lib, yosh davr xususiyatlariga binoan (bolalar, o'quvchilar, talabalar) psixikaning rivojlanishi, shaxsning shakllanishi qonuniyatlarini amaliyotda hisobga olgan holda faoliyat olib borish, o'qituvchilar jamoasiga bolalar, o'quvchilar va talabalar ta'limtarbiyasini individuallashtirishda yordamlashish, ularning qobiliyati, maylining darajasiga qarab o'qituvchilarga korreksion ishlarni amalga oshirishda ko'rsatmalar berishdan iborat. Psixologik xizmatning ushbu yo'nalishida alohida ahamiyat kasb etadigan narsa – bu bolalar, o'quvchilar, talabalar o'sishida (rivojlanishida) kechikish (orqada qolish), ularda xulqning buzilishi, ta'limda o'zlashtirishning yomonlashuvi hisoblanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. 2017 yil 30 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tubdan ta'minlanadi chora-i to'g'risida"gi PF 5198-sonli farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrdagi "2017-2021 yillar maktabgacha ta'lim yanada to'g'ridan-to'g'ri ta'mirlash chora-tadbirlari to'g'risida'gi PQ2707- sonli qarori.
3. Zaporojets A.V. Tanlangan psixologik asarlar. -M.: Pedagogika, 1986. - 239 b.
4. Nishonova Z., Alimova G. Bolalar psixologiyasi va o'qitish metodikasi. -T., 2007 yil.
5. Uljaevna, U. F. (2020). Didactic games in preschool educational system. Проблемы современной науки и образования, (4-2 (149)), 27-29.
6. Uljaevna, U. F., & Shavkatovna, S. R. (2021). Development and education of preschool children. ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 11(2), 326-329.

7. Uljaevna, U. F., & Shavkatovna, S. R. DOI: 10.5958/2249-7137.2021. 00358. X "Development and education of preschool children" ACADEMICIA. An International Multidisciplinary Research Journal.(Double Blind Refereed & Peer Reviewed Journal). ISSN, 2249-7137.
8. O'rinova, F. (2019). REPORT ON PROBLEMS IN THE PRE-SCHOOLS OF ORGANIZATIONAL PREVENTIVE CENTERS. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(11), 311-315.
9. Dubrovina V.I. Korryeksionnaya rabota s dyetmi. – M.: 2000.
10. Bogoslavskaya V.S. Pedagogichyeskaya korryeksiya. – M.:1998.
11. I.P.Podlasыy. Kurs lyektsiy po pedagogichyeskoy korryeksii. – M.: Vlados, 2003.
12. Po'latova P. M. Maxsus pedagogigka – T.: 2005.
13. V.S. Kukushin. Tyeoriya i metodika vospitaniya – M.: Vыsshaya obrazovaniya, 2006.
14. Novotortsyeva N.V. Korryeksionnaya pedagogika i spyetsialnaya psixologiya. Slovar. – Moskva, Pedagogika, 1999.
15. Fayziyev U.YU. Talaffuzga o`rgatish dasturi. - T.: RO`MM, 1994.